

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining yalpi majlisiga 2021 yil yakuni bo'yicha O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar vazirining huquqbuzarliklarning oldini olish va ularning profilaktikasi holati to'g'risidagi hisoboti

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev boshchiligida **Yangi O'zbekistonni** barpo etish maqsadida mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarda fuqarolarning qonuniy haq-huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bunda ichki ishlar organlarini **xalqchil davlat idorasiga aylantirish** hamda har bir xodim tomonidan o'z xizmat faoliyatini xalq manfaatlari yo'lida safarbar etilishini ta'minlash uchun tizimda izchil islohotlar davom ettirilmoqda.

Xususan, 2021 yil mobaynida ichki ishlar organlarining faoliyatini **sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish** maqsadida bir qator quyidagi kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

I. 2021 yilgi "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi ijrosi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 fevraldagi **PF-6155-son** Farmoni bilan tasdiqlangan "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturidagi chora-tadbirlar uchun Ichki ishlar vazirligi asosiy ijrochisi etib belgilangan jami **6 ta** bandning barchasi bajarildi.

Birinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida ilgari surilgan tashabbus bilan respublikada fuqarolikka qabul qilish tizimidagi islohotlar davom ettirilib, O'zbekiston **fuqaroligiga qabul qilish** tartibi yanada soddalashtirildi.

Bu borada, davlatimizda 15 yil davomida (*2005 yil yanvargacha*) istiqomat qilayotgan **20 mingdan** ortiq fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga ham O'zbekiston fuqaroligini olish uchun imkoniyatni yaratish maqsadida, **2021 yil 14 iyunda** "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida" alohida qonun qabul qilindi.

Ikkinchidan, inson huquqlarini ta'minlash sohasida xalqaro standartlar va insonparvarlik tamoyiliga tayangan holda Jazoni ijro etish va Probatsiya xizmati yo'nalishida jinoyatga qo'l urgan shaxslarni sog'lom turmush tarziga qaytarish bo'yicha **yangi tizim joriy** etildi.

Buning natijasida,

- xalqaro standartlardan kelib chiqib, **25 ta** manzil-koloniya (*2022 yilda 6 tagacha*) bosqichma-bosqich qisqartiriladi va manzil-koloniyalarning bino inshootlari tegishli hududiy hokimliklar balansiga o'tkazilishi belgilanadi;

– birinchi marta ozodlikdan mahrum etish jazosiga hukm qilingan mahkumlarni manzil-koloniya lariga emas, probatsiya bo'linmalari nazoratiga olish amaliyoti joriy etilib, ularni ozodlikdan mahrum qilmagan holda ijtimoiylashuviga erishish uchun amaldagi Jinoyat-ijroya kodeksiga o'zgartirish va qo'shimcha kiritildi;

– probatsiya xizmatining markaziy va hududiy mahkamalari maqomi oshiriladi, "probatsiya faoliyati" ta'lim yo'nalishi va mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlashni

yo'lga qo'yish hamda ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq bo'lmagan jazolarni ijro etish mexanizmlari takomillashtiriladi.

Uchinchidan, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasida fuqarolarga qo'shimcha qulayliklar yaratish va sohada "inson omili" ta'sirini kamaytirish maqsadida **3 ta yangi tartiblar** amaliyotga tatbiq etildi:

– transport vositalarini **texnik ko'rikdan** o'tkazish eksterritoriallik tamoyili joriy etildi;

– hududdan qat'iy nazar **davlat raqami belgilarini** berish va milliy **haydovchilik guvohnomasini** rasmiylashtirish amaliyoti yo'lga qo'yildi;

– haydovchilik guvohnomasini olish uchun **imtihon olish jarayonini** jamoatchilik tomonidan, shu jumladan Internet tarmog'i orqali "onlayn" kuzatish amaliyotini joriy etildi;

– 2021 yil **1 avgustidan boshlab**, tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan imtihon qabul qilishi uchun ruxsat berildi.

To'rtinchidan, aholi osoyishtaligini ta'minlash va mahallalarda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish bo'yicha bir qator **yangi yondoshuvlar** amaliyotga joriy etildi.

Beshinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 29 noyabrdagi PF-27-son Farmoni bilan **O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi kontseptsiyasi** tasdiqlandi va unga ko'ra respublikaning barcha hududlarida jamoat xavfsizligini ta'minlash uchun **10 ta** davlat idoralarining **aniq vazifalari** va ularni **amalga oshirish tartibi** belgilandi.

II. Ichki ishlar organlari faoliyatini yangi bosqichga ko'tarish borasida

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida tarixda ilk bor j.y. **12 fevralda** o'tkazilgan **Ichki ishlar vazirligi Hay'atining kengaytirilgan majlisida** ichki ishlar organlarining faoliyatini **sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish** bo'yicha eng dolzarb va muhim masalalar belgilab berildi.

Mazkur topshiriqlar ijrosini o'z vaqtida, sifatli va to'liq bajarilishini ta'minlash maqsadida, 2021 yil 15 fevralda barcha hududiy ichki ishlar organlari va profilaktika inspektorlari ishtirokida **Vazirlik Hay'atining alohida yig'ilishi (5-VH-son)** o'tkazildi va 18 fevralda Ichki ishlar vazirligining "**Yo'l xaritasi**" ishlab chiqildi.

Bugungi kunga kelib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan berilgan topshiriqlarining ijrosini ta'minlash borasida **4 ta** qonun, Prezidentning **2 ta** farmoni va **6 ta** qarori, **21 ta** Hukumat qarorlari qabul qilindi.

Mazkur hujjatlar bilan ichki ishlar organlarida boshqaruv tizimi **mutlaqo yangi shaklda** tuzildi, ya'ni **turdosh sohaviy** xizmatlar faoliyatini muvofiqlashtirish uchun bevosita vazir o'rinbosari tomonidan boshqarilayotgan **Tezkor-qidiruv, Jamoat xavfsizligi, Transport va turizm ob'ektlarida xavfsizlikni ta'minlash** hamda **Ma'naviy-ma'rifiy ishlar va kadrlar bilan ta'minlash departamentlari** tashkil etildi.

Shuningdek, barcha jazoni ijro etish muassasalari hududiy ichki ishlar organlarining tuzilmaviy-funksional bo'ysunuvidan chiqarilib, yagona markazlashtirilgan tizimiga birlashtirildi va bevosita Ichki ishlar vazirligi huzuridagi **Jazoni ijro etish departamentiga** bo'ysundirildi.

Mahallalarda jinoyatchilikni jilovlash borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

tomonidan berilgan topshiriqlarning ijrosini ta'minlash maqsadida, j.y. mart-may, sentyabr-oktyabr va dekabr oylarida **Ichki ishlar vaziri** hamda vazir o'rinbosari (*A.Ikramov, B.Abdullaev*) boshchiligida, joylardagi og'ir mahallalarda muammolarni hal etish bo'yicha "**Xavfsiz xonadon**" va "**Xavfsiz hovli**" tizimi asosida ish tashkil etildi.

Kriminogen og'ir mahallalarda ichki ishlar organlarining tayanch punktlari tugatilib, jinoyatchilikni "jilovlash"ning **yangi mexanizmi** sifatida **248 ta** "**Mahalla huquq-tartibot maskanlari**" tashkil etildi.

Respublikadagi barcha mahallalar (*9 314 ta*) kriminogen vaziyatga qarab uchta toifaga, ya'ni "**qizil**" (*3 047 ta*), "**sariq**" (*2 682 ta*) va "**yashil**" (*2 639 ta*) toifalarga ajratildi.

"**Qizil**" va "**sariq**" toifali mahallalarda "**jinoyat o'choq**"larini bartaraf etish uchun ularning har biri tuman-shahar hokimi, huquq-tartibot idoralari rahbarlari va ularning o'rinbosarlariga birlashtirildi.

Poytaxtda **72 ta**, qolgan hududlarda esa **830 ta** mahallada og'ir kriminogen vaziyatni ijobiy tomonga o'zgartirish uchun "**mahallabay**" dasturlari ishlab chiqilib, ijroga qaratildi.

Har bir hududda shunday mahallalarning **10 tasida** bu ishlar uchun **viloyat darajasidagi birinchi rahbarlar** shaxsan mas'ul etib belgilandi.

Jinoyatchilik sabablarini **ilmiy yondashuv** asosida aniqlash va bartaraf etish uchun eng og'ir **42 ta** mahalla **idoraviy oliy o'quv yurtlariga** (*IIV Akademiyasi, Bosh prokuratura Akademiyasi, Milliy gvardiya Jamoat xavfsizligi universiteti*) birlashtirildi.

Bevosita mahallalarda xavfsizlikni ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlar natijasida 2021 yil yakuniga ko'ra respublikadagi **9 314 ta** mahallalardan **2 639 tasida** (*28,3 %*) bironta ham jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilmadi.

III. Jinoyatchilikka qarshi kurashish natijalarini yaxshilash bo'yicha

2021 yil mobaynida respublika hududida jinoyatchilikni jilovlash, sodir etilgan jinoyatlarni fosh etish va jamoat xavfsizligini ta'minlash borasida bir qator **kompleks chora-tadbirlar** amalga oshirildi.

Eng asosiysi, avvalgi yillardan farqli o'laroq, jinoyatlarni aniqlash ijobiy natija sifatida baholab, bu borada xodimlarning tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlash choralari ko'rildi.

Xususan, hisobot davrida respublikada sodir etilgan umumiy jinoyatlar soni **111 082 tani** tashkil etib, har 100 ming aholiga nisbatan o'rtacha **321 tadan** to'g'ri kelgan.

Shu jumladan, jinoyatlarni tergov qilish davomida **29 431 ta** (*jami jinoyatlarning 26,5 %*) jinoyatlar avvalgi yillarda sodir etilganligi aniqlandi va 2021 yilda hisobga qo'yildi. Shuningdek, xodimlarning tashabbusi bilan **32 889 ta** jinoyatlar aniqlandi (*jami jinoyatlarning 29,6 %*).

Qayd etish lozimki, aniqlangan jinoyatlar soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **56,7 foizga** (*20 994 tadan 32 889 taga*) yaxshilandi.

Shu jumladan, ichki ishlar organlari tomonidan:

– **1 313 nafar** shaxslar tomonidan sodir etilgan **1018 ta** korrupsiya va iqtisod sohasidagi jinoyatlar aniqlanib, ular oqibatida etkazilgan **180,6 mlrd so'm** miqdoridagi

zarar undirilishi ta'minlandi;

– **1 tn 477 kg** narkotik vositalari olindi;

– **741 bosh** xizmat itlari yordamida **3 977 ta** jinoyatlar fosh etilib, **75 kg** ortiq giyohvandlik vositalari aniqlandi;

– targ'ibot-tashviqotlar natijasida **1 007 dona** qurol va **3 004 dona** o'q-dorilarni fuqarolar o'z xohishi bilan topshirdi, **139 nafar** fuqarolar esa **141 dona** qurol va **506 dona** o'q-dorilarni noqonuniy saqlaganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortildi;

– **odam savdosiga qarshi kurashish** yo'nalishida **162 ta** jinoiy holat aniqlanib (*shundan 96 tasi shahvoniy maqsadda, 55 tasi chaqaloq savdosi, 11 tasi majburiy mehnat bilan bog'liq holat*), **195 nafar** shaxsga nisbatan qonuniy choralar ko'rildi;

– respublikada sodir etilgan jinoyatlarning **98 776 tasi** yoki **88,9 foizi** fosh etildi, tergov organlaridan yashiringan **4 615 nafar** shaxslar ushlendi, **434 nafar** bedarak yo'qolganlar topilib, **104 ta** shaxsi noma'lum murdalarning shaxsi aniqlandi.

IV. Alohida toifadagi shaxslar orasida huquqbuzarliklar profilaktikasi tadbirlari

Yoshlar orasida jinoyatchilikning barvaqt oldini olish borasida alohida e'tibor **uyushmagan yoshlar** bilan ishlashga qaratilib, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish choralari ko'rildi.

Bu boradagi ishlarni yanada jadallashtirish maqsadida, 2021 yil 18 aprelda **“Toshkent tajribasi”** yaratildi (*33, 20-QQ, 13, 451-son qo'shma qarori*) va mazkur tajriba asosida poytaxtdagi **16 328 nafar** yoshlarning muammolari o'rganib chiqilib, ularning **4 535 ta** muammolari **“fuqarobay”** tamoyili asosida ijobiy hal etilishi ta'minlandi.

2021 yil 26-27 iyun kunlari Toshkent shahridagi **500 nafar** uyushmagan yoshlar bilan Vazirlik Akademiyasining **“O'quv dala”** markazida **“Vatan kelajagi yoshlar qo'lida”** shiori ostida **ilk bor** yoshlar forumi o'tkazildi.

Mazkur tadbir davomida mamlakatimizda yoshlar bilan ishlash sohasida amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha amaliy **ko'rgazmalar**, kasb egallash va tadbirkorlikni boshlash uchun yaratilayotgan imkoniyatlar yuzasidan xususiy sektor va bank vakillari tomonidan **tushuntirish ishlari** olib borildi.

Xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish hamda oilalarda sog'lom turmush tarzini qaror toptirish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi.

Xususan:

– **6 610 nafar** xotin-qizlarning ishga joylashishida, **6 976 nafariga** moddiy va ijtimoiy yordam berilishida, **1 547 nafarini** tibbiyot dispanserlariga yuborilishida, **1 653 nafariga** shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarni qayta tiklashda, **2 398 nafariga** tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishda amaliy yordamlar ko'rsatildi;

– **“himoya orderi”** rasmiylashtirilgan **39 343 nafar** nafar xotin-qizlarning oilalarida olib borilgan profilaktik ishlar natijasida **20 769 ta** oila yarashtirildi, **15 142 ta** oilalarda nizolari bartaraf etildi, shuningdek, ularning qonuniy haq-huquqlarini to'liq ta'minlash maqsadida, tazyiq o'tkazgan va (yoki) zo'ravonlik sodir etgan **2 229 nafar** shaxslar himoya orderi talablarini bajarmaganligi uchun ma'muriy javobgarlikka tortildi.

Aholining kam ta'minlangan, yakka yolg'iz, boquvchisini yo'qotgan, nogiron hamda doimiy mehnat bilan band bo'lmagan qatlamlari bilan ishlash borasida **“mahallabay”** tizimi yo'lga qo'yildi.

V. Yo'l-transport hodisalarining oldini olish borasidagi tadbirlar

Yo'l-transport hodisalari sodir etilishining barvaqt oldini olish borasida bir qator kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Respublika bo'yicha yo'l harakatini nazorat qilish maqsadida avtomobil yo'llariga jami **1 584 ta** kamera, jumladan **1 154 ta** kuzatuv, **430 ta** yo'l harakati qoidabuzarliklarni aniqlash kameralari o'rnatildi.

Tezlikni nazorat qilish bo'yicha "**Onlayn**" rejimida ishlovchi **252 ta** fotoradar hamda **60 ta** "Nexia 3" rusumli avtomobillar bazasiga o'rnatilgan mobil komplekslar ("*ATLAS International*" kompaniyasining "*MultaRadarCD*" rusumli mobil komplekslari) ishga tushirildi.

Yo'l-transport hodisalari ko'p sodir etilayotgan **118 ta** avtoavariya "**o'choqlari**" aniqlanib, bartaraf etildi. Harakatlanish xavfsizligini ta'minlash borasida, avtomobil yo'llari va shahar ko'chalarida **50 286 ta** yangi yo'l belgilari **o'rnatildi**, **30 984 ta** eskirgan yo'l belgilari **yangisiga almashtirildi**, **17,3 mln kv.m** yo'l qatnov qismi va **2 315 ta** sun'iy notekisliklar to'siqlar o'rnatildi.

VI. Ichki ishlar organlari faoliyatini raqamlashtirish

Ichki ishlar organlari faoliyatiga **raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt**ni joriy etish borasida ham bir qator ishlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi PF-6196-son Farmoniga muvofiq Vazirlar Mahkamasining "**Ichki ishlar organlari faoliyatiga raqamli texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida**"gi qarori 2021 yil 15 oktyabr kuni tasdiqlandi.

Qaror bilan **ichki ishlar tizimiga axborot texnologiyalarini joriy etish kontseptsiyasi va uni amalga oshirish chora-tadbirlar dasturi** (91 ta band) belgilandi.

Jumladan 2021-2023 yillarda sohaga **12 ta** yangi axborot tizimlarini joriy etish, davlat xizmatlarining **80 foizini** elektron shaklga o'tkazish bo'yicha manzilli tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Tizimdagi sohaviy xizmatlar faoliyatini yanada takomillashtirishga hamda fuqarolarga engillik yaratishga qaratilgan **quyidagi ishlar bajarildi**.

Ichki ishlar organlarining raqamli infratuzilmasini modernizatsiya qilish, ma'lumotlarni qayta ishlash va saqlash markazini tashkil etish (*mavjud 4 ta ma'lumot qayta saqlash markazlari birlashtiriladi*) yuzasidan loyiha-tadqiqot ishlari yakunlandi hamda asosiy **server xona infrastrukturasi shakllantirildi**.

Vazirlik Transportda xavfsizlikni ta'minlash bosh boshqarmasi tuzilmasida **Situatsion-tahliliy markaz** tashkil etildi.

Davlat xizmatlaridan foydalanishda yanada qulay sharoitlar yaratish maqsadida IIV va Axborot texnologiyalari vazirligi o'rtasida "**Hamkorlik kelishuvi**" tasdiqlanib, jismoniy shaxslarga davlat xizmatlarini ko'rsatishda **18 turdagi** hujjatlar "Elektron hukumat" tizimi idoralararo integratsiyalashuv platformasi orqali so'rab olinishi yo'lga qo'yildi.

VII. Ichki ishlar organlari xodimlarining umumiy dunyoqarashi, siyosiy ongi, ma'naviy va intellektual salohiyatini yuksaltirish borasidagi ishlar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 2 apreldagi **PQ-5050-son** qarori bilan tasdiqlangan **“Ichki ishlar organlarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish kontsepsiyasi”** ijrosini ta’minlash maqsadida, j.y. 3 mayda Ichki ishlar vazirligi hamda Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining o’zaro **hamkorlik memorandumi** imzolandi.

Shuningdek, Ichki ishlar vazirligining **14 ta Akademik litseylari**, Nukus shahrida **“Temurbeklar maktabi”** harbiy-akademik litseyi va **1 ta Ixtisoslashtirilgan maktab-internati** tashkil etildi.

Rahbarlar va xodimlarning **malakasini oshirish** va **qayta tayyorlash** bo’yicha bir qator ishlar amalga oshirildi.

2021 yil davomida **40 316 nafar** ichki ishlar organlari xodimlari turli modullar va o’z yo’nalishlari bo’yicha **malaka oshirish dasturlari asosida o’qitildi**.

Uzluksiz o’quv-karera jarayoni tizimi bo’yicha 2021 yil davomida **2 479 nafar** xodimlar o’qitilib, shulardan **2 182 nafariga** tegishli namunadagi **sertifikatlar** topshirildi.

Boshlang’ich kasbiy tayyorgarlik kurslari bo’yicha **431 nafar safdorlar** tarkibidagi xodimlar va **523 nafar** tuman, shahar ichki ishlar organlarining voyaga etmaganlar masalalari bo’yicha **inspektor-psixolog** lavozimiga xizmatga qabul qilingan xodimlar o’qitildi.

Bundan tashqari, xodimlar malaka oshirish instituti bazasida va uning masofali ta’lim platformasi orqali **336 nafar** xodimlar **masofadan** o’qitildi.

O’zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi